

## **ILMIY FANTASTIKA JANRI VA UNING LEKSIK VA SINTAKTIK XUSUSIYATLARI**

**Axtamova Nasiba Yorqin qizi**

Navoi davlat pedagogika institute

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 4 I guruh talabasi.

**Hasanova Xurshidabonu Baxtiyarovna**

Ilmiy rahbar: Navoi davlat pedagogika instituti Ingliz tili  
amaliy kursi kafedrasi katta òqituvchisi

### **ANNOTASIYA**

*Ilmiy maqola ilmiy fantastika janri va uning leksik va sintaktik xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Fentezi va fantaziya tushunchasi va termini asosan adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan keng ko'lama o'r ganilganligi, ammo hozirgi tilshunoslikda esa yetarlicha tadqiq qilinmaganligi kuzatildi.*

**kalit so'zlar:** *ilmiy fantastika, janr, leksika, sintaktika, xususiyat, fentizi*

Jahon va xalq madaniy va ma'naviy boyliklari bilan tanishish o'z milliy merosimizga o'zgacha ko'z bilan qarashni taqozo etsa, o'zaro qiyoslash uni munosib baholashga imkon yaratadi. Shu ma'noda, mumtoz va zamonaviy chet el adabiyotidan bahramand bo'lish, o'r ganish va tadqiq etish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki jahon adabiy jarayonidan xabardor kishi o'z milliy adabiyotini o'zgacha mehr va talabchanlik bilan baholaydi.

Badiiy tarjimaning milliy adabiyotlar taraqqiyoti va xalqlar o'rtasida adabiy-madaniy munosabatlarning kengayishiga, millatlararo muloqot kompetensiyalarini shaklantirishga xizmat qilishi tan olinganligi sababli milliy- madaniy xususiyatlarga ega til birliklarini tarjimada aks ettirish muammosi, tilshunoslik va tarjima nazariyasi

fanlari oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Jumladan, til birliklarining milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq etish zaruriyati, til madaniyat munosabatini yoritish ehtiyojini lingvomadaniyatning alohida soha sifatida rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Mustaqillikdan keyin milliy o‘zlikni anglash, xalq ma’naviyatini yuksaltirish, badiiy yodgorliklarni jahonga tanitishga qaratilgan sa’i-harakatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, jahon madaniyatining durdona asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish va o‘z navbatida kitobxonlarni umuminsoniy qadriyatlardan xabardor qilish, o‘zbek xalqini yuksak badiiy asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilish keng ko‘lamda rivojlanmoqda. Mamlakatimizda olimlarning “Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini rag‘batlantirish hamda amaliyotga joriy etish samarali mexanizmlarni yaratish”ga doir olib borilayotgan islohotlar ilmiy izlanuvchilarga keng yo‘l ochib berdi. Mana shunday taraqqiyot tamoyillari zamirida o‘zbek adabiyoti badiiy asar namunalarini chet el kitobxoni e’tiboriga taqdim etish uchun sifatli tarjimani amalga oshirish bo‘yicha qiyosiy tarjimashunoslik sohasida keng va chuqur izlanishlar olib borish ahamiyati ortdi.

Chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjima nazariyasi, kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik, leksik-stistik nazariy asoslarini yaratishda xorij va respublika olimlari Raymo Antila, Edna Endryuz, E.Maksimova, O‘.Yusupov, J.Bo‘ronov, O.Mo‘minov, M.Irisqulov, N.Qambarov, Q.To‘xtayeva, G‘.Salomov, I.G‘afurov, M.Sulaymonov, V.P.Moskvin, Yu.L.Obolenskaya, H.Abrams, C.Forceville, B.O‘rinboyev, R.Qo‘ng‘urov, J.Lapasovlarning ulushi katta.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, Fentezi va fantaziya tushunchasi va termini asosan adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan keng ko‘lamda o‘rganilganligi, ammo hozirgi tilshunoslikda esa yetarlicha tadqiq qilinmaganligi kuzatildi. Ayniqsa, qiyosiy jihatdan ingliz va o‘zbek adiblarini fentezi janridagi asarlari misolida tadqiqot olib borilmaganligi, ikkichidan, ikki xalq ijodida fentezi va fantaziya janri lingvomadaniyatshunoslik doirasida yetarlicha tadqiq qilinmagan, uchunchidan

kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan masalaning to‘liq o‘rganib chiqilmaganligi mazkur ishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1. Bakhtiyorovna Y.G. *Degree and relationship of increasing the creative activity of students of technical higher education in the process of teaching foreign languages* //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – T. 10. – C. 152-156.
2. Yakhoeva G. *Retrospective analysis of the development of student’s creative activity in education and cognitive activity* //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 92-94.
3. Y.G.Bakhtiyorovna *Relationship of student activity with creative development in German language lessons* - Thematics Journal of Social Sciences, 2021
4. Bakhtiyorovna Y.G. *Degree and relationship of increasing the creative activity of students of technical higher education in the process of teaching foreign languages* //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. 10 (2022): 152-156.
5. Bazarova U. M. *Spiritual and moral education of students in the use of technology in the preparation of future professionals for innovative activities in foreign language classes* //Архив научных исследований. – 2022. – T. 2. – №. 1.
6. Mamurjanovna, Bazarova Umida. "FEATURES of the classification of types of geotechnological terminology in the English language." youth, science, education: Topical Issues, Achievements and Innovations 1.1 (2022): 8-11.